

**O'ZBEKISTONDA TRANSPORT SOHASIDAGI ISLOHOTLARNING
URBANIZATSIYA JARAYONLARIGA TA'SIRI VA YO'L
INFRATUZILMASI**

Egamberdiev Odil Buriboevovich

teacher of Tashkent Transport University, Tashkent,

[*odil925386@gmail.com.*](mailto:odil925386@gmail.com)

Annotatsiya: *Magolada O'zbekiston hududlarida transport sohasining*

Urbanizatsiya jarayonlariga ta'siri, yangidan qurilayotgan hamda rekonstruktsiya qilinayotgan avtomobil yollarining shaharlarni rivojlanishidagi ahamiyati tahlil qilingan. Shu bilan birga, Respublika ahamiyatidagi yo'llarning savdo-logistika tarmoqlariga ijobiy ta'siri hamda ulari jadallashtirish masalalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: *urbanizatsiya, transport, shahar, yo'l bo'yi infratuzilmasi, port-shahar, investitsiya.*

Abstract: *Keywords: The article analyzes the impact of the transport sector on the processes of urbanization in the regions of Uzbekistan, the role of newly built and reconstructed highways in the development of cities. At the same time, the issues of the positive impact of roads of national importance on the trade and logistics sector and their acceleration are discussed.*

Keywords: *urbanization, transport, urban, roadside infrastructure, port-city, investment.*

Kirish gismi. Bugungi kunda jahonning rivojlangan mamlakatlarida shaharlarni o'rni, ulami yashash uchun qulay va xavfsiz bolishi eng avvalo shaharda yashovchi aholi uchun shuningdek, shaharga tashrif buyuruvchilar uchun ham muhim omillardan biri sanaladi. O'z navbatida, bu kabi omillarning asosi shaharlari to'g'ri loyihalashtirish hamda rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishdir. Bunda, eng avvalo transport tizimining o'ri, uning shahar hududidagi to'g'ri rejalashtirilganligi

va tashkil etilganligi hisoblanadi.

Iqtisodiyotni ragamlashtirish sharoitida korporativ boshgaruv Shaharlarda yollarni to'g'ri loyihalash orgali yo'l bo'yi infratuzilmasini rivojlanishiga, shahardagi transport ogimining ravon harakatiga, migratsiya jarayonlarining tartioga solinishiga erishish mumkin bo'ladi. Umuman olganda, shaharlarning g'omtomiri hisoblangan yo'llar urbanizatsiya jarayonlarida muhim o'rin kast etishi sababli bugungi kunda mazkur yo'nalishning oziga hos muammo va masalalari ham yo'q emas.

Asosiy qisim .Mamlakatimizda yo'llarni quish, ularni ta'mirlash va kengaytirish borasida ulkan loyihalar amalga oshirilib kelinmoqda. Xususan,

Avtomobil yo'llari qo'mitasining asosiy faoliyat ko'rsatgichlari to'g'risida tahliliy ma'lumotga ko'ra o'tgan 2021-yil mobaynida investitsiya dasturi doirasida davlat byudjetidan 1462,1 mird so'm miqdordagi qurilish va rekonstruktsiya ishlari amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatgich 2020-yildagiga nisbatan 122,9%ni tashkil etadi«).

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2024-yillarda O'zbekiston Respublikasini ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 22-yanvardagi PQ-98-son qaroriga muvofiq birgina 2022-yilda yo'l transport infratuzilmasi, shu jumladan avtomobil yo'llari va temir yo'l transporti va metro qurilishi hamda rekonstruktsiya g'ilinishi uchun respublika byudjetidan jami 2 trln. 400 mlrd. so'm pul mablag'lari ajratilgan.

Bu esa o'z navbatida o'tgan 2021-yil yilga nisbatan 1,8 marta ko'p. O'zbekiston Respublikasida mavjud avtomobil yo'llarining uzunligi 184 000 km.ni tashkil qiladi. Bular quyidagicha: Shu jumladan: alqaro ahamiyatdagi-3 981 km; davlat ahamiyatidagi-14 100 km;

2022(Maxalliy hokimliklar balansida). Shu jumladan: shaxar ko'chalari-7 125 km;

- tuman markazlari ko'chalari-12 530 km;
- qishloq aholi punktlari-49 383 km;
- shahar aholi punktlari-15 456 km;

- xo'jaliklararo qishloq yo'llari-32 066 km;

Iqtisodiyotni ragamlashtirish sharoitida korporativ Investitsiya dastur bo'yicha (mird som)

I-rasm: 2021-yilda yo'llarni qurish va ta'mirlash uchun ajratilgan pul miqdori grafikda Umuman olganda avtomobil yo'llari shaharlarning rivojlanishiga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Yirik shaharlar ulkan transport uzellari hisoblanib, ularda savdo-sotiq muhim o'rin tutgan holda, sanoat rivojlanishiga erishiladi, shu bilan birga transport terminallari tomonidan ish o'rinlari yaratiladi. Ko'pgina shaharlar aynan suv va quruqlik kesishgan joylarda qurilgan bo'ladi. Bularga London, Marsel, Parij va boshqa port-shaharlar bunga yaqqol misol bo'la oladi. Avtomobil yollari shaharlarni va ular atrofida joylashgan hududlarni rivojlantirishga misol qilib Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani hududidagi

Amirsoy ko'ngilochar dam olish maskanini olishimiz mumkin. 2-rasm: Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani hududida joylashgan Amirsoy dam olish maskani.

2017-yilda qurilishi boshlangan Amirsoy dam olish maskani 2020-yilda Jahon turistlar kuni munosabati bilan eng yashil xizmat ko'rsatish maskani sifatida taqdirlangan. Mazkur dam olish maskaniga olib boruvchi yo'l ilgari foydalanishga yaroqsiz bo'lganligi sababli transport harakati cheklangan edi. Ushbu hududda aholining ko'p qismi ishlash uchun shaharlarga borar, aksariyati esa chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'illanar edi. Bugungi kunga kelib esa Amirsoy dam olish maskaniga olib boruvchi yo'l investor tomonidan qayta ta'mirlanishi natijasida mazkur hududda rivojlanish harakatlari asta-sekin jadallasha boshladi. Birinchi navbatda dam olish maskaniga boruvchi yo'l boylarida tub aholi savdo-sotiq va xizmat ko'rsatish obyektlari barpo etila boshladi. Bu esa ushbu hududda yo'l bo'yini infratuzilmasini rivojlanishiga olib keldi. Kichik dam olish maskanlari, kafe, restoran, tamaddixonalar, avtomobilga xizmat ko'rsatish shaxobchalari shular jumlasidan. Xulosa / tavsiyalar. Shuni alohida ta'kidlash joizki, transport yo'llari shaharlarning qon tomiri kabi. Ularning qanchalik to'g'ri loyihalashtirilishi hamda tashkil etilishi shaharda transport va aholi oqimini tartibli tarzda amalga

oshirilishiga sabab bo ladi.

Shaharlarni rivojlantirishida shahar atrofidagi kichik shaharlar aglomeratsiyasi bu kelajakda katta va yirik shaharlar, megapolislari paydo bo'lishiga olib keladi. Bunda migratsiya jarayonlari, aholining harakatini to'g'ri yo'lga qo'yilishi eng avvalo atomobil yollari sohasini rivolantirish orqali amalga oshirilishiga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 22.01.2022 yildagi PQ-98-sonli Qarori.
2. Isamuxamedova, L.A.Adilova. Shaharsozlik asoslari va landshaft arxitekturasini: 1 qism, darslik,-T.2009
- 3.[https://mintrans.uz/useful-articles/O'zbekiston Respublikasidagi avtomobil yo'llari to g'risida](https://mintrans.uz/useful-articles/O'zbekiston-Respublikasidagi-avtomobil-yo'llari-to-g'risida)